


DEMOGRAFIK HOLAT

(2020- yil yanvar-sentabr, dastlabki ma'lumot)

Jizzax viloyatida doimiy aholisi soni 2020- yil 1- oktabr holatiga 1403,2 ming kishini tashkil etib, 2020- yil boshidan 21,1 ming kishiga yoki 101,5 % ga o'sdi.


2020- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholisi soni
1403,2 ming kishi.



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (2020- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi)

| | 2019- yil | 2020- yil | o'sish sur'ati, % |
|-----------------|-----------|-----------|-------------------|
| Jizzax viloyati | 1374,5 | 1403,2 | 102,1 |
| Jizzax sh. | 176,5 | 179,9 | 101,9 |
| Arnasoy | 45,7 | 46,3 | 101,3 |
| Baxmal | 155,1 | 158,5 | 102,2 |
| G'allaorol | 170,4 | 174,1 | 102,2 |
| Sh. Rashidov | 218,9 | 224,5 | 102,6 |
| Do'stlik | 65,1 | 66,3 | 101,8 |
| Zomin | 162,6 | 166,0 | 102,1 |
| Zarbdor | 85,2 | 87,5 | 102,7 |
| Mirzacho'l | 51,4 | 52,4 | 101,9 |
| Zafarobod | 49,6 | 50,4 | 101,6 |
| Paxtakor | 74,0 | 75,3 | 101,8 |
| Forish | 92,0 | 93,5 | 101,6 |
| Yangiobod | 28,0 | 28,5 | 101,8 |

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1- oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Sh. Rashidov tumanida 224,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,0 % ni) va Jizzax shahrida 179,9 ming kishini (12,8 %), aksincha eng kam aholi soni Arnasoy 46,3 ming kishi (3,3 %) va Yangiobod tumanida 28,5 ming kishini (2,0 %) tashkil etdi.

TUG‘ILISH

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 28,2 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 27,0 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega ko‘paygan (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida 26,3 promille bo‘lgan).

Ma’lumot uchun

Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindikpulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.



Tug‘ilish koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Jizzax shahar (22,0 promilledan 23,7 promillega) va Baxmal tumanida (30,7 promilledan 31,6 promillega) sezilarli o‘sgan bo‘lib, aksincha sezilarli kamayish Sh. Rashidov tumanida (29,0 promilledan 28,9 promillega) va Zomin tumanida (28,6 promilledan 28,4 promillega) kuzatildi.

Jizzax viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2020- yil yanvar-sentabr)

| | 2019- yil | 2020- yil | o'sish sur'ati, % |
|-----------------|-----------|-----------|-------------------|
| Jizzax viloyati | 26806 | 28188 | 105,2 |
| Jizzax sh. | 2890 | 3176 | 109,9 |
| Arnasoy | 783 | 779 | 99,5 |
| Baxmal | 3534 | 3718 | 105,2 |
| G'allaorol | 3472 | 3755 | 108,2 |
| Sh. Rashidov | 4688 | 4815 | 102,7 |
| Do'stlik | 1097 | 1157 | 105,5 |
| Zomin | 3453 | 3509 | 101,6 |
| Zarbdor | 1751 | 1906 | 108,9 |
| Mirzacho'l | 800 | 824 | 103,0 |
| Zafarobod | 850 | 916 | 107,8 |
| Paxtakor | 1362 | 1393 | 102,3 |
| Forish | 1633 | 1696 | 103,9 |
| Yangiobod | 493 | 544 | 110,3 |

TUG'ILGANLAR SONI

2020- yil yanvar-sentabr




Qiz bola:
13,4 ming
kishi


O'g'il bola:
14,8 ming
kishi




Oylar kesimida tug'ilganlar soni, kishi




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 28,2 mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar 52,4 %, qiz bolalar 47,6 % ni tashkil etadi.




**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti
(2020- yil yanvar-sentabr, ming birlik)**



Jizzax viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar o'sish sur'ati, foizda (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan)



Jizzax viloyati bo'yicha nikohdan ajralishlar o'sish sur'ati, foizda (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan)



MIGRATSIYA

2020- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 5,0 ming kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 7,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 2,4 ming kishi bo‘lib, 2019- yilning mos davrida minus 0,7 ming kishi bo‘lgan.



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal tumanida (minus 0,6 ming kishi) G‘allaorol va Zomin tumanida (minus 0,5 ming kishi).

(ming kishida)

| | 2019- yil yanvar-sentabr | 2020- yil yanvar-sentabr |
|----------------------|--------------------------|--------------------------|
| Ko‘chib kelganlar | 7,8 | 5,0 |
| Ko‘chib ketganlar | 8,5 | 7,4 |
| Migratsiya saldosini | -0,7 | -2,4 |

Viloyat statistika boshqarmasi
"Demografiya va mehnat
statistikasi bo‘limi"
(72) 221-51-19
(72) 222-81-39